



CANADA



CANADA

## O'ZBEK TILIDA QO'SHMA GAPLAR

*Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent  
axborot texnologiyalari universiteti  
katta o'qituvchisi  
Gayubova Komila Anvarovna,*

**Ushbu maqolada:** o'zbek tilida qo'shma gaplar, ularning turlari, qo'shma gap tizimlarining shakllanishi kabi masalalar ko'rib chiqilgan. Qo'shma gaplarda ob'ektiv va subyektiv munosabat, baho, modal talqini, o'zga nutqni kiritish kabilarni ta'kidlagan holda alohida ifodalangan.

**Kalit so'zlar:** diktum, denotativ, modus, funksional, modal, mazmuniy yadrosi, kompleks, noto'liq gaplar, mazmuniy-sintaktik.

Olamdagi barcha voqealarning o'rtasidagi mantiqiy munosabatning tabiatini ham turlicha, bu munosabat sabab-oqibat shaklida bo'ladigan bo'lsa, ayni munosabatdagi voqealarning o'zaro aloqasi juda zinch bo'ladi, zero, sababsiz oqibat va oqibatsiz sabab bo'lishi mumkin emas. Shakl va mazmun dialektikasiga ko'ra, bu, albatta, gapning mazmuniy-sintaktik sathida ham o'z ifodasini topadi. Agar voqealarning o'rtasidagi munosabat, aytaylik, o'xshatishga asoslangan bo'lsa, ayni munosabatdagi voqealarning o'zaro aloqasiga u qadar mustahkam bo'lmaydi. Chunki, o'xshatish real olamdagidan xolis usul emas, balki so'zlovchining nutqiy ifoda maqsadi bilan aloqador bo'lgan subyektiv yondashuvdir. Bu ham, albatta, gapning mazmuniy-sintaktik sathida o'z ifodasiga ega bo'ladi. Ta'kidlash lozimki, voqealar o'rtasidagi mantiqiy munosabatlar benihoya murakkab va xilma-xil. Bunday murakkab munosabatlarning ifodasi uchun, ayniqsa, ergash gapli qo'shma gaplar qulay, ammo qo'shma gaplarning boshqa tiplarida ham voqealar o'rtasidagi munosabatlar ifodalananadi. Kiylaslang: Bahor kelgach, gullar ochildi,

Tayinki, voqealarning o'rtasidagi mantiqiy munosabatning tabiatini ham turlicha, bu munosabat sabab-oqibat shaklida bo'ladigan bo'lsa, ayni munosabatdagi voqealarning o'zaro aloqasi juda zinch bo'ladi, zero, sababsiz oqibat va oqibatsiz sabab bo'lishi mumkin emas. Shakl va mazmun dialektikasiga ko'ra, bu, albatta, gapning mazmuniy-sintaktik sathida ham o'z ifodasini topadi. Agar voqealarning o'rtasidagi munosabat, aytaylik, o'xshatishga asoslangan bo'lsa, ayni munosabatdagi voqealarning o'zaro aloqasiga u qadar mustahkam bo'lmaydi. Chunki, o'xshatish real olamdagidan xolis usul emas, balki so'zlovchining nutqiy ifoda maqsadi bilan aloqador bo'lgan subyektiv yondashuvdir. Bu ham, albatta, gapning mazmuniy-sintaktik sathida o'z ifodasiga ega bo'ladi. Ta'kidlash lozimki, voqealar o'rtasidagi mantiqiy munosabatlar benihoya murakkab va xilma-xil. Bunday murakkab munosabatlarning ifodasi uchun, ayniqsa, ergash gapli qo'shma gaplar qulay, ammo qo'shma gaplarning boshqa tiplarida ham voqealar o'rtasidagi munosabatlar ifodalananadi. Kiylaslang: Bahor kelgach, gullar ochildi,

Bahor kelib, gullar ochildi. Bahor keldi va gullar ochildi, Bahor keldi — gullar ochildi. Bu gaplarning hammasi bir variativ sintaktik qatorni tashkil etadi, ular uchun umumiy bo‘lgan mantiqiy-mazmuniy munosabat esa paytdan iborat. Bu qatordagi gaplar mazmunidagi yetakchi, voqeа, albatta, «gullarning ochilishi»dir. Bahorning kelishi esa yordamchi voqeadir, lekin ular vaqt jihatiga ko‘ra o‘zaro munosabatga kirishgan.

Bog‘langan qo‘shma gapni tashkil etgan qismlar shaklan mustaqil, mazmunan o‘zaro bog‘langan gaplardan tashkil topadi. Lekin shaklda mazkur munosabatlar bevosita ifodaga ega bo‘lmaydi. Bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarda ham vokealar o‘rtasidagi xilma-xil munosabat aks etsa-da, bu munosabat bevosita shakliy ifodaga ega bo‘lmaydi. Shunga qaramasdan, ularda ham voqealarning birining yetakchiligi, uning boshqasi bilan mantiqiy-mazmuniy munosabati anglanadi.

Shu o‘rinda yana bir mulohazani aytib o‘tish maqsadga muvofiq. Dunyodagi tilshunosliklarning deyarli barchasida qo‘shma gaplarning tasnifi deyarli bir xil, ya’ni: 1) bog‘langan qo‘shma gap, 2) ergashgan (yoki ergash gapli) qo‘shma gap va 3) bog‘lovchisiz ko‘shma gap. Bu tasnidagi nomlanishda asos yagona emasday tuyuladi. Bir qarashda yagona asos borga o‘xshaydi, ya’ni tasnidha go‘yoki grammatik shakldan kelib chiqilgan: «bog‘langan» deganda bog‘lovchilar (teng), «ergashgan» deganda ergashtiruvchi bog‘lovchilar ana shunday boshqa vositalar, «bog‘lovchi-siz» deganda esa bog‘lovchi va bog‘lovchi vositalar ishtirok etmagan qo‘shma gaplar nazarda tutilganday. Ammo aslida «ergashgan» deganda ham shakliy, ham mazmuniy jihat hisobga olinganlini aniqroq angla-shiladi, ya’ni bir voqeanning boshqasiga tobelligi, ergashishi ta’kidlangan. Ayni paytda, ergashish ham bog‘lanish, ergashgan ko‘shma gap qismlari bog‘langan qo‘shma gapdagiga qaraganda zichroq bog‘langan. «Bog‘lovchisiz qo‘shma gap» deganda mazmunga mutlaqo ishora ham yo‘q. Ma’lumki, bog‘lovchisiz ko‘shma gaplar o‘zbek tilida ham, boshqa tillarda ham keng qo‘llanadi. Ularda xilma-xil mazmun munosabatlari ifodalanadi. Ana shularni hisobga olib, qo‘shma gap tiplarining nomlanishi masalasini qayta ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq (Lekin ushbu ishning maqsadi boshqa bo‘lganligi uchun bu masalani ochiq qoldiramiz).

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1.G‘ulomov.A, Asqarova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili.- T.,1997 yil
- 2.Norimova.A, Maxmudov N .O‘zbek tilining sintaktikasi.-T.1999 yil.
- 3.Matyuziyev A. O‘zbek tilidagi ayrim ergashtiruvchi bog‘lovchilarning tarixiga doir; O‘zbek tili va adabiyoti,1998 yil,1-son.
4. Shoabduraxmonov Sh., Asqarova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili.-T.,1999 yil
4. Uktamovna, M. M. (2023). O’ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA EPITETNING CHOG’ISHTIRMA TADQIQI. OBRAZLI EPITETLAR. MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH, 2(23), 439-444.

5. Mamadjanova, M. (2023). ESSENTIAL CHARACTERISTICS OF EPITHET. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(10), 89-91.
6. Uktamovna, M. M. (2022). EPITETNING LINGVISTIK TABIATI. IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(8), 26-30.
7. Uktamovna, M. M. (2023). TRANSFERRED EPITHET IN ENGLISH LANGUAGE. Научный Фокус, 1(1), 921-924.
8. Mamadjanova, M. U. (2022). O 'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA EPITETNING CHOG 'ISHTIRMA TADQIQI. ANTONAMAZIYA EPITETLAR. RESEARCH AND EDUCATION, 1(5), 110-115.